

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODELI	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	



KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI



Baymuradov Shoxrux Maxmudovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Biznes boshqaruvi kafedrası dotsenti v.b. PhD

Dilmudov Komiljon Ahmad o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti BBA-87 guruhi talabasi
mail: dilmurodovkomiljon5@gmail.com



Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda innovatsiyalarni boshqarish va yangi g'oyalarni amaliy hamda tijoriy natijalarga aylantirish masalalari yoritilgan. Bugungi raqobat muhitida korxona uchun yangi g'oyani yaratishning o'zi bilan cheklanmasdan, uni bozor talablariga mos mahsulot yoki xizmatga aylantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maqolada innovatsion g'oyalarni shakllantirishdan boshlab, ularni tanlash, iqtisodiy jihatdan baholash, bozor talabini o'rganish, sinovdan o'tkazish va tijoratlashtirishgacha bo'lgan jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi moliyaviy, bozor, texnologik va tashkiliy omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida innovatsion g'oyalarni samarali boshqarish va ularni bosqichma-bosqich tijoratlashtirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm taklif etilgan. Mazkur yondashuv korxonalarga istiqbolli g'oyalarni asosli ravishda tanlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion risklarni samarali boshqarish hamda yangi mahsulot va xizmatlarni bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsiyalarni boshqarish, innovatsion g'oya, tijoratlashtirish, korxona, biznes modeli, bozor talabi, innovatsion loyiha, innovatsion risk, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article examines innovation management in enterprises and the process of transforming new ideas into practical and commercial outcomes. In today's competitive business environment, generating a new idea alone is not sufficient; enterprises also need to transform promising ideas into products or services that meet market needs. From this perspective, the article analyzes the key stages of managing innovative ideas, including idea generation and selection, economic evaluation, market research, testing, and commercialization. Particular attention is paid to the financial, market, technological, and organizational factors that influence the success of innovative projects. Based on the findings, a practical mechanism for effectively managing innovative ideas and their gradual commercialization is proposed. This approach enables enterprises to identify promising ideas more effectively, use available resources efficiently, manage innovation-related risks, and successfully bring new products and services to market.

Keywords: innovation, innovation management, innovative idea, commercialization, enterprise, business model, market demand, innovative project, innovation risk, competitiveness.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы управления инновациями на предприятиях и процесс преобразования новых идей в практические и коммерческие результаты. В условиях современной конкурентной среды наряду с созданием новой идеи важное значение приобретает её преобразование в продукт или услугу, соответствующие требованиям рынка. В связи с этим в статье анализируются основные этапы управления инновационными идеями, включая их формирование и отбор, экономическую оценку, изучение рыночного спроса, тестирование и коммерциализацию. Особое внимание уделено финансовым, рыночным, технологическим и организационным факторам, влияющим на успешность инновационных проектов. На основе проведённого анализа предложен практический механизм эффективного управления инновационными идеями и их поэтапной коммерциализации. Данный подход позволяет предприятиям более обоснованно отбирать перспективные идеи, рационально использовать имеющиеся ресурсы, эффективно управлять инновационными рисками и успешно выводить новые продукты и услуги на рынок.

Ключевые слова: инновации, управление инновациями, инновационная идея, коммерциализация, предприятие, бизнес-модель, рыночный спрос, инновационный проект, инновационные риски, конкурентоспособность.

KIRISH

Bugungi raqobat sharoitida korxonalar uchun yangi g'oya yaratishning o'zi yetarli emas. Muhimi, ushbu g'oyani bozor talablariga mos mahsulot yoki xizmatga aylantirish hamda undan amaliy iqtisodiy natija olishdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab innovatsion g'oyalarni tijoriy natijaga olib chiqish jarayonida moliyalashtirish, bozor talabini to'g'ri baholash, texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish va boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog'liq omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois innovatsiyalarni samarali boshqarish va ularni bosqichma-bosqich tijoratlashtirish zamonaviy biznes boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli Farmoni[®] bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yangi ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Bu jarayonda korxonalar oldida turgan muhim vazifalardan biri mavjud innovatsion imkoniyatlarni samarali boshqarish va ularni iqtisodiy qiymatga aylantirishdir.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi korxonalarda innovatsion g'oyalarni tijoriylashtirish jarayonini o'rganish hamda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotda g'oyalarni tanlash va baholash, bozor talabini aniqlash, sinovdan o'tkazish hamda tijoratlashtirish bosqichlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyalarni boshqarish va ularni tijoratlashtirish masalalari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. J. Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikning muhim omillaridan biri sifatida baholagan bo'lsa, P. Drucker innovatsiyalarni korxona faoliyatida yangi imkoniyatlarni izlash va ulardan samarali foydalanish vositasi sifatida ko'rib chiqadi. H. Chesbrough tomonidan ilgari surilgan "ochiq innovatsiya" konsepsiyasi esa korxonalarning tashqi bilimlar, texnologiyalar va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanishi innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda asosiy e'tibor innovatsiyani yaratish bilan bir qatorda, uni bozor talablariga moslashtirish va tijoriy natijaga aylantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion g'oyalarni saralash, bozorni o'rganish, prototiplash, sinovdan o'tkazish va masshtablash bosqichlarini yagona boshqaruv tizimi sifatida ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Mavjud yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, innovatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat yangi g'oyaning mavjudligiga, balki uni to'g'ri baholash, zarur resurslar bilan ta'minlash va bozorga samarali olib chiqish jarayonlariga ham bog'liq. Mazkur maqolada aynan ushbu jarayonlarni korxona boshqaruvi nuqtayi nazaridan tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxonalarda innovatsion g'oyalarni boshqarish va ularni tijoratlashtirish jarayonini o'rganishda tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy e'tibori innovatsion g'oyaning shakllanishidan boshlab, uni bozorga olib chiqishgacha bo'lgan jarayonning asosiy bosqichlarini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot davomida innovatsion g'oyalarni tanlash va baholash, bozor talabini aniqlash, prototip yaratish, sinovdan o'tkazish, tijoratlashtirish va masshtablash bosqichlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion loyihalarning samaradorligiga ta'sir etuvchi bozor, moliyaviy, texnologik va tashkiliy omillar o'rganildi. Xorijiy tajriba hamda O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda innovatsiyalarni boshqarish samaradorligini baholashda faqat yangi g'oyalar yoki ilmiy ishlanmalar soniga e'tibor qaratish yetarli emas. Muhim jihat — yaratilgan g'oyalarning qay darajada amaliyotga joriy etilgani va real iqtisodiy qiymatga aylantirilganidir. O'zbekistonning 2025-yilgi Global Innovation Index natijalari ham mazkur masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Mamlakat 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni egallagan bo'lib, innovatsion imkoniyatlarni ifodalovchi inputlar bo'yicha 69-o'rinda, innovatsion natijalar bo'yicha esa 92-o'rinda qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar innovatsion faoliyat uchun yaratilayotgan imkoniyatlar mavjud salohiyatni amaliy natijalarga aylantirish yo'nalishida yanada keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur



holat korxonalar va innovatsion tizimda mavjud resurslarni tayyor mahsulotlar, xizmatlar hamda tijoriy natijalarga aylantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhimligini anglatadi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonning innovatsion faoliyatidagi asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	2025-yil natijasi	O'ri
Global Innovation Index	—	79-o'rin / 139 ta
Innovatsion inputlar	—	69-o'rin
Innovatsion outputlar	—	92-o'rin
Institutlar	51,9 ball	62-o'rin
Inson kapitali va tadqiqotlar	27,4 ball	81-o'rin
Biznes murakkabligi (Business sophistication)	27,08 ball	77-o'rin
Bilim va texnologiya natijalari	20,90 ball	68-o'rin
Kreativ natijalar	11,81 ball	104-o'rin

Manba: WIPO, Global Innovation Index 2025 <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekistonda innovatsion faoliyat uchun institutsional va moliyaviy sharoitlar izchil shakllanib bormoqda. Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlarni yuqori darajadagi tijoriy va kreativ natijalarga aylantirish yo'nalishida qo'shimcha rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Xususan, WIPO ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning "Entrepreneurship policies and culture" ko'rsatkichi bo'yicha 3-o'rinni, startap va scale-up loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha esa 6-o'rinni egallashi ijobiy natija sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, yalpi R&D xarajatlari bo'yicha 98-o'rin, patent oilalari bo'yicha 100-o'rin va venture capital bitimlari soni bo'yicha 108-o'rin qayd etilgani innovatsiyalarni moliyalashtirish, ilmiy natijalarni huquqiy jihatdan himoyalash hamda ularni biznes loyihalariga aylantirish zanjirini yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda innovatsion g'oyalarni amaliy mahsulotga aylantirish borasida Artel Electronics tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Kompaniya innovatsiyalarni faqat yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklamasdan, maxsus tadqiqot va ishlanmalar markazi — Artel R&D faoliyati orqali tizimli ravishda boshqarib kelmoqda. Kompaniyaning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, R&D markazi 2016-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri iste'molchilarning ehtiyoj va muammolarini o'rganish hamda shu asosda yangi mahsulotlar va texnologik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Markazda 60 dan ortiq xodim faoliyat yuritadi va 400 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan.

Mazkur tajribani maqolada ilgari surilayotgan "g'oya → bozor ehtiyoji → ishlab chiqish → sinov → tijoratlashtirish" yondashuvining amaliy ko'rinishi sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, Artel R&D markazining iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganishga yo'naltirilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion mahsulot yaratishda asosiy mezon faqat texnologik yangilikning o'zi emas, balki uning iste'molchi uchun qanday muammoni hal qilishi va bozor talabiga qanchalik mos kelishidir. Kompaniya, shuningdek, mahsulotlarni modernizatsiya qilish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, sanoat dizaynini rivojlantirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlarida faoliyat yuritadi (2-jadval).

2-jadval.

Artel Electronics kompaniyasida innovatsiyalarni boshqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Artel Electronics tajribasi
R&D markazi tashkil etilgan yil	2016-yil
R&D markazi xodimlari	60+ nafar
Amalga oshirilgan loyihalar	400+ ta
Asosiy yo'nalish	Yangi mahsulot va texnologiyalar ishlab chiqish
Innovatsion yondashuv	Iste'molchi ehtiyojlarini o'rganish asosida mahsulot yaratish
Qo'shimcha faoliyat	Mahsulotlarni modernizatsiya qilish, sanoat dizayni, reverse engineering
Hamkorlik	Samsung va boshqa xalqaro brendlar bilan hamkorlik

Manba: Artel Electronics <https://artelectronics.com/en/business/rnd> kompaniyasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Artel misolida ko'rinadiki, innovatsiyalarni boshqarishning samarali modeli R&D faoliyatini korxonaning bozor strategiyasi bilan uzviy bog'lashni talab etadi. Masalan, kompaniya R&D markazi orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda, mavjud mahsulotlarni modernizatsiya qilish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Kompaniyaning Samsung Electronics bilan hamkorligi natijasida Samsung brendi

ostidagi maishiy muzlatkichlarni Artel ishlab chiqarish maydonlarida litsenziya asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani ham bilim va texnologiyalarni tashqi hamkorlik orqali o'zlashtirishning amaliy namunasi hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlil va amaliy baholash natijalari korxonalarda innovatsiyalarni samarali boshqarish faqat yangi g'oyalarni yaratish bilan cheklanmasdan, ularni bozor talabi va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan to'g'ri tanlashni ham talab etishini ko'rsatdi. O'zbekistonning Global Innovation Index natijalarida innovatsion inputlar va outputlar o'rtasidagi tafovut ham mavjud imkoniyatlarni amaliy natijalarga aylantirish yo'nalishining dolzarbligini tasdiqlaydi. Artel Electronics tajribasi esa R&D faoliyatini iste'molchilar ehtiyojlari va ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lash innovatsion g'oyalarning amaliy va tijoriy qiymatini oshirishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy korxonalarda innovatsiyalarni boshqarishning asosiy vazifasi faqat yangi g'oyalar sonini ko'paytirish emas, balki ular orasidan bozor va iqtisodiy jihatdan istiqbolli bo'lganlarini aniqlash hamda amaliy va tijoriy natijalarga aylantirishdan iborat. O'zbekistonning Global Innovation Index ko'rsatkichlari ham innovatsion imkoniyatlarni yakuniy natijalarga aylantirish yo'nalishida qo'shimcha rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu sababli innovatsion faoliyatni g'oyani shakllantirishdan boshlab, uni tijoratlashtirish va masshtablashgacha bo'lgan yagona, uzviy boshqaruv jarayoni sifatida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan Artel Electronics tajribasi innovatsion faoliyatni R&D jarayonlari, iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bilan o'zaro bog'lash mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, muallif tomonidan taklif etilgan baholash modeli innovatsion loyihalarni bozor talabi, daromad olish imkoniyati, texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyati, investitsiya talabi va risk darajasi asosida saralash imkonini beradi. Mazkur yondashuv korxonalarga mavjud moliyaviy va tashkiliy resurslarni eng istiqbolli innovatsion loyihalarga samarali yo'naltirish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, korxonalar uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion g'oyalarni dastlabki saralash tizimini joriy etish. Har bir innovatsion g'oyani bozor talabi, daromadlilik, texnik imkoniyatlar va risk darajasi kabi mezonlar asosida kompleks baholash maqsadga muvofiq.

2. R&D faoliyatini biznes strategiyasi bilan integratsiya qilish. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari korxonaning real bozor ehtiyojlari hamda strategik maqsadlari bilan bevosita bog'langan holda tashkil etilishi lozim.

3. Prototiplash va pilot sinovlarni kengaytirish. Mahsulotni keng miqyosda ishlab chiqarishga joriy etishdan oldin uning kichik miqyosdagi sinovlarini o'tkazish moliyaviy va bozor risklarini samarali boshqarish hamda mahsulotni takomillashtirish imkonini beradi.

4. Innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmini qo'llash. Dastlabki bosqichda zarur hajmdagi mablag'larni yo'naltirish, loyiha belgilangan natijalarga erishganidan so'ng esa keyingi bosqichlarga qo'shimcha investitsiyalar ajratish maqsadga muvofiq.

5. Innovatsiyalar samaradorligini maxsus KPilar orqali baholash. Yaratilgan g'oyalar soni bilan bir qatorda, tijoratlashtirilgan loyihalar ulushi, yangi mahsulotlardan olingan daromad, bozorga chiqish muddati va innovatsion loyihalarining investitsiya qaytimi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish lozim.

6. Korxonalar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish. Bunday hamkorlik ilmiy ishlanmalarni amaliyotga samarali joriy etish, bilim va texnologiyalar almashinuvini kengaytirish hamda ularni tijoratlashtirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, korxonalarda innovatsiyalarni samarali boshqarishning muhim sharti "ko'proq g'oya" tamoyilidan "istiqbolli g'oyani to'g'ri tanlash va uni bozorga samarali olib chiqish" tamoyiliga o'tish hisoblanadi. Taklif etilgan yondashuv innovatsion resurslardan oqilona foydalanish, tijoriy risklarni samarali boshqarish hamda korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-6102462> — Toshkent, 2022.
2. [LexUZ — PF-165-son Farmon](#)
3. Artel Electronics. Research and Development (R&D). — Tashkent: Artel Electronics. [Artel Electronics — R&D](#)
4. World Intellectual Property Organization (WIPO). Global Innovation Index 2025: Uzbekistan. — Geneva: WIPO, 2025.
5. [WIPO — Global Innovation Index: Uzbekistan](#)
6. Chesbrough H. W. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. — Boston:



- Harvard Business School Press, 2003. — 272 p.
7. Cooper R. G. Winning at New Products: Creating Value Through Innovation. 5th ed. — New York: Basic Books, 2017. — 368 p.
 8. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. — New York: Harper & Row, 1985. — 277 p.
 9. OECD, Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th ed. — Paris: OECD Publishing, 2018. — 256 p. [OECD — Oslo Manual 2018](#)
 10. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. — 255 p.
 11. Teece D. J. Business Models, Business Strategy and Innovation // Long Range Planning. — 2010. — Vol. 43, No. 2–3. — P. 172–194. [ScienceDirect — Business Models, Business Strategy and Innovation](#)
 12. Samsung Electronics. Sustainability Report 2024. — Seoul: Samsung Electronics, 2024. [Samsung Electronics — Sustainability Report 2024](#)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100